

KASBIY YO’NALTIRISH JARAYONIDA O’QUVCHILARNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH.

ADPI “Pedagogika va Psixologiya”
kafedrası o’qituvchisi O. Qodirova
ADPI Texnologik ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi B. K. Mirzajonova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19417905>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o’quvchi-yoshlarni kasbga yo’naltirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kasb tanlash jarayonining psixologik jihatlari hamda o’quvchilarni kasbga yo’naltirishda ularning yosh davrlariga xos xususiyatlarni hisobga olish zarurligi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim jarayoni, kasbga yo’naltirish, kasbiy targ’ibot, ehtiyoj, kasb tanlash.

Психологические особенности профессиональной ориентации молодежи

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы профессиональной ориентации учащейся молодежи в образовательном процессе. Также освещаются психологические аспекты выбора профессии и особенности учета возрастных этапов учащихся при организации работы по профессиональной ориентации.

Ключевые слова: образовательный процесс, профессиональная ориентация, профессиональная пропаганда, потребность, выбор профессии.

Psychological characteristics of youth career guidance

Abstract. This article analyzes the issues of career guidance for students within the educational process. It also highlights the psychological aspects of choosing a profession and emphasizes the importance of considering students’ age-related characteristics in the process of career guidance.

Keywords: educational process, career guidance, professional promotion, needs, career choice.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti ko’p jihatdan yosh avlodning to’g’ri kasb tanlashi va o’z imkoniyatlarini to’liq namoyon eta olishi bilan chambarchas bog’liqdir. Shu sababli ta’lim tizimida o’quvchi yoshlarni kasbga yo’naltirish masalasi muhim pedagogik va psixologik muammo sifatida qaralmoqda. Yoshlarning kasb tanlash jarayoni nafaqat ularning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlariga, balki jamiyat ehtiyojlari, mehnat bozori talablari hamda ijtimoiy omillarga ham bevosita bog’liqdir.

Ta’lim jarayonida o’quvchilarni kasbga yo’naltirish ishlari ularning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish bosqichlari va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o’quvchilarda kasbga nisbatan qiziqish, mehnatga bo’lgan ijobiy munosabat, shaxsiy imkoniyatlarni anglash kabi sifatlarni shakllantirish kelajakdagi kasbiy faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi.

Bugungi kunda yoshlarni kasbga yo’naltirish nafaqat maktab ta’limining muhim vazifalaridan biri, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham o’quvchilarni kasbga yo’naltirish jarayonini psixologik jihatdan chuqur o’rganish va samarali metodlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqil O’zbekistonda ta’lim tizimida talabalarni tarbiyasiga nisbatan qo’yayotgan eng muxim talablardan biri, layoqatli, ijodiy va mustaqil fikrlovchi, shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishga o’quvli mutaxassislarni tarbiyalashdan iboratdir.

Zero, bugungi globallashuv davrida yuksak texnologiyalarni boshqarishga layoqatli mutaxassislar etishtirishga erishilsa, ezgu niyatlar ijtimoiy hayotda qaror topgan bo’lar edi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro’yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko’tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o’z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og’ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatsharvar, iymon-e’tiqodli insonlar bo’lib voyaga etishadi.

Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimining barcha jabhalarida o’quvchilarni kasbga yo’naltirishning ahamiyati kattadir.

O’quvchilarni kasbga yo’naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo’nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo’lib xisoblanadi. Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir.

Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo’ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o’z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maksadga yo’naltirilgan jarayon sifatida aloxida ajralib turadi.

Mustaqil O’zbekistonda o’quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo’yayotgan eng muxim talablardan biri ularda mexnat qilish extiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mexnat qilishga bo’lgan extiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko’pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mexnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mexnatdagina o’zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi.

Umumiy ta’lim maktabini isloh qilishning asosiy yo’nalishlarida o’quvchilarning mexnat tarbiyasi va kasbga yo’naltirilishi qanday rol o’ynashiga aloxida e’tibor berilgan. Extiyojlar kelib chiqishiga ko’ra tabiiy va madaniy bo’lishi mumkin. Tabiiy extiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning xayoti va uning avlodi xayotini saklash uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlarga bo’ysunganlik ifodalanadi.

Madaniy extiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining maxsuliga bog’liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarxadlariga borib taqaladi.

Ma’naviy jixatdan o’rinli bo’lgan extiyoj odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baxolar va dunyoqarashga mos keladigan extiyojlardir[3].

Extiyojlar o’z predmetining xarakteriga ko’ra moddiy va ma’naviy bo’lishi mumkin. Moddiy extiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishiga, kiyinishiga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga extiyoj sezish) ma’naviy extiyojlarda esa ijtimoiy ong maxsuliga tobelligi ifodalanadi. Ma’naviy extiyojlar ma’naviy madaniyatni yaratish va o’zgartirishda o’z aksini topadi. O’quvchi o’z fikr-muloxazalari va tuyg’ularini boshqalar bilan baxam ko’rishga gazetalar, kitoblar va jurnallar o’qishga kinofilmlar va spektakllar ko’rishga, muzika tinglashga va shu kabilarga extiyoj sezadi.

Ma’naviy extiyojlar moddiy extiyojlar bilan uzviy bog’liqdir. Ma’naviy extiyojlarni qondirish uchun, moddiy extiyojlar predmeti xisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog’ozlari, buyoqlar va shu kabilar) talab qilinishi shubxasiz.

Shu tariqa, kelib chiqishiga ko’ra, tabiiy, shu bilan birga predmetiga ko’ra moddiy, kelib chiqishiga ko’ra madaniy xisoblangan extiyoj yo moddiy bo’lishi, yo predmetiga ko’ra maonaviy bo’lishi mumkin.

Agar xayvonlarning xatti-xarakati butunlay atrof muxit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshligidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko’ra yo’nantirilib boriladi. Xatti-xarakatning bu turi shu qadar o’ziga xoslikka egaki, o’quvchilarni kasbga yo’nantirish psixologiyasida uning atash uchun maxsus termin – kasb faoliyati termini qo’llaniladi.

Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog’liq. SHaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, o’zligini namoyon qiladi xam. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon bo’lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi. Xar qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko’rinishlarda namoyon bo’ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma’lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma’ruzani konspekt qilayotgan talabanning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo’lib, u avvalo o’sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o’zgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo’ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yo’nantirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi[4].

Tashki kasbiy faoliyat shaxsni o’rab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni o’zgartirishga qaratilgan faoliyat bo’lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo’lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat ro’y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda xam barcha xarakatlar xam ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam bo’ladi. Agar o’ylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy bo’lgani bilan uning peshonalari, ko’zlari, xattoki, qo’l xarakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir to’xtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o’quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so’ngra kasbga yo’llash kerak.

Kasbga yo’nantirish - bu ilmiy asoslangan va o’zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o’zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg’un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir [1].

Bu tadbirlar jamiyat va shaxs qiziqishlarini umumlashtiradi. Kasbga yo’nantirish tizimi xar bir o’zining vazifalariga va yechish metodlariga ega bo’lgan tizimlar va boshqichlardan iboratdir. Butunligicha u maktab imkoniyati va vazifalari chegarasidan chiqib ketadi, umumdavlat tadbirlariga aylanib, qator boshqa ishtirokchilarning qo’shilishini talab qiladi.

Bular kasb-xunar kollejlari, oliy o’quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo’jaligi, transport va aloqa tizimi, kasbga yo’nantirish shaxs uchun idividual, shuningdek, jamiyat uchun ahamiyatga egadir.

Bizning qobiliyatimizning aniq bir kasbga adashib tushishi tez-tez shaxsiy muvaffaqiyotsizlik bilan tugaydi. Ammo bu xatolardan shaxsning o’zi, oilasi qiynaladi, shuningdek, butun jamiyat xam qiynaladi.

Yoshlarni kasbga yo’naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo’nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo’lib xisoblanadi.

Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir [5].

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni kasbga yo’naltirish ta’lim tizimining muhim yo’nalishlaridan biri bo’lib, u o’quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari hamda psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. O’quvchilarni to’g’ri kasb tanlashga yo’naltirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga hamda jamiyatda o’z o’rnini topishiga xizmat qiladi.

Kasbga yo’naltirish jarayonida o’quvchilarning yosh davrlari, psixologik rivojlanish bosqichlari va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o’quvchilarda kasbga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi, ularning mehnatga bo’lgan qiziqishini oshiradi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatini to’g’ri tanlashga yordam beradi.

Shu bois ta’lim jarayonida kasbga yo’naltirish ishlarini tizimli ravishda tashkil etish, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanish hamda o’quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арипджанова А.Р. 2017. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари.
2. Axmadovna S.D. 2021. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish: Sayfullayeva
3. Bahronova Sh.I. 2024. Oliy ta’limda talabalrning kasbiy kompetensiyalarini va kreativligini shakllantirishda dasturlashtirilgan vositalarning o’rni. // “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy metodik jurnal. №1 B.184-188.
4. Baxronova S., Davlatova N. 2023. Texnologiya fanidan mashg’ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – Т. 1. – №. 7. С. 64-68.
5. Baxronova S., Davlatova N. 2023. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shartlari.
6. Позилова Ш.Х.2018. Креативная компетентность преподавателей информатикивысших учебных заведений // Информатика и образование.-М.: - №1. С.61-63.